Материалы и методы: В исследование включены 134 пациента в возрасте от 35 до 80 лет с АГ и СД. Средний возраст пациентов составил $62,42 \pm 8,1$ лет, из которых 38% были мужчинами и 62% - женщинами. Пациенты были разделены на 2 группы в зависимости от уровня NT-pro BNP: в группу 1 вошли пациенты с уровнем NT-pro BNP выше 125 пг/мл ($n = 64$), а в группу 2 вошли пациенты с уровнем NT-pro BNP ниже 125 пг/мл ($n = 73$).

Результаты: При сравнении показателей офисного систолического артериального давления (САД) и офисного диастолического артериального давления (ДАД) между двумя группами существенных различий не выявлено. Уровень NT-pro BNP в обеих группах составил: $297,5 [160,0-562,5]$ пг/мл против $42,0 [21,6-61,0]$ пг/мл. Конечно-систолический размер (КСР) - $3,8 \pm 0,8$ см против $3,4 \pm 0,3$ см, $p = 0,001$; Конечно-диастолический размер (КДР) - $5,38 \pm 0,6$ см против $5,21 \pm 0,3$ см, $p = 0,046$. Конечно-диастолический объем (КДО) - $142,7 \pm 36,7$ мл против $130,9 \pm 19,4$ мл, $p = 0,024$; Конечно-систолический объем (КСО) - $69,3 \pm 35,8$ мл против $51,25 \pm 12,89$ мл, $p = 0,001$; Толщина межжелудочковой перегородки и задней стенки левого желудочка были статистически значимо больше в группе 1 - ТМЖП - $1,23 \pm 0,8$ мм против $1,18 \pm 0,1$ мм, $p = 0,004$; ТЗСЛЖ - $1,22 \pm 0,09$ мм против $1,15 \pm 0,12$ мм, $p = 0,001$; Хотя фракция выброса левого желудочка (ФВЛЖ) сохранялась в обеих группах, группы значительно различались: $53,6 \pm 11,8\%$ против $61,17 \pm 4,5\%$, $p = 0,001$. В группе 1 масса миокарда левого желудочка (ММЛЖ) - $262,2 \pm 44,07$ г/м² против $261,6 \pm 65,1$ г/м², $p = 0,6$ и индекс массы миокарда левого желудочка (ИММЛЖ) - $172,9 \pm 44,6$ г/м² против $161,4 \pm 26,3$ г/м², $p = 0,026$, были статистически значимо выше по сравнению с группой 2. В то же время была обнаружена прямая корреляция между уровнем NT-pro BNP и продолжительностью СД ($r = 0,33$, $p = 0,001$), КДР ($r = 0,16$, $p = 0,05$), КСР ($r = 0,3$, $p = 0,001$), ТМЖП ($r = 0,25$, $p = 0,003$), ТЗСЛЖ ($r = 0,31$, $p = 0,001$), ИММЛЖ ($r = 0,12$, $p = 0,019$), КДО ($r = 0,19$, $p = 0,024$), КСО ($r = 0,32$, $p = 0,001$), и обратная корреляция с ФВ ($r = -0,39$, $p = 0,001$).

Вывод: СД является серьезной клинической проблемой для лечащего врача. Наличие СН у пациентов с СД 2 типа является плохим прогностическим признаком по сравнению с пациентами без СД. Наличие ИБС и АГ являются основными причинами развития СН у пациентов с СД. На ранних стадиях СН для диагностики важен тщательный анализ диастолической функции левого желудочка при эхокардиографии. В то же время важным является определение количества NT-pro BNP в крови.

Ключевые слова: Артериальная гипертензия, сахарный диабет 2 типа, NT-pro BNP, ремоделирование сердца, диастолическая функция левого желудочка, систолическая функция левого желудочка.

Saidakbarova F.T.

postdoctoral student,
Republican Specialized Scientific and
Practical Medical Center of Cardiology
Tashkent, Uzbekistan

Srojidinova N.Z.

MD, Republican Specialized Scientific and
Practical Medical Center of Cardiology
Tashkent, Uzbekistan

THE IMPACT OF NT-PROBNP IN THE DEVELOPMENT OF CARDIAC REMODELING IN PATIENTS WITH DIABETES MELLITUS

ANNOTATION

Objective: To study the role of NT-proBNP in cardiac remodeling in patients with diabetes mellitus (DM) and arterial hypertension (AH).

Materials and Methods: This study included 134 patients aged 35–80 years with AH and DM. The average age of the patients was 62.42 ± 8.1 years, of whom 38% were male and 62% were female. Patients were divided into two groups according to NT-proBNP levels: Group 1 included patients with NT-proBNP levels > 125 pg/ml ($n = 64$), and Group 2 included patients with NT-proBNP levels < 125 pg/ml ($n = 73$).

Results: When comparing office systolic blood pressure (SBP) and office diastolic blood pressure (DBP) indicators between the two groups, no significant differences were found. The NT-pro BNP levels in both groups were: $297.5[160.0-562.5]$ pg/ml vs. $42.0[21.6-61.0]$ pg/ml. ESD- 3.8 ± 0.8 cm vs 3.4 ± 0.3 cm, $p = 0.001$; EDD – 5.38 ± 0.6 cm vs 5.21 ± 0.3 cm, $p = 0.046$. EDV - 142.7 ± 36.7 ml vs 130.9 ± 19.4 ml, $p = 0.024$; ESV – 69.3 ± 35.8 ml vs 51.25 ± 12.89 ml, $p = 0.001$; The thickness of the interventricular septum and the posterior wall of the left ventricle was found to be statistically significantly greater in group 1 - IVST - 1.23 ± 0.8 mm vs 1.18 ± 0.1 mm, $p = 0.004$; PWT - 1.22 ± 0.09 mm vs 1.15 ± 0.12 mm, $p = 0.001$; Although the left ventricular ejection fraction (LVEF) was preserved in both groups, the groups differed significantly: $53.6 \pm 11.8\%$ vs $61.17 \pm 4.5\%$, $p = 0.001$. In group 1, LV mass (LVM) - 262.2 ± 44.07 g/m² vs 261.6 ± 65.1 g/m², $p = 0.6$ and LV mass index (LVMI) - 172.9 ± 44.6 g/m² vs 161.4 ± 26.3 g/m², $p = 0.026$, were statistically significantly higher compared to group 2.

In addition, a direct correlation was found between NT-proBNP level and DM duration ($r = 0.33$, $p = 0.001$), EDD ($r = 0.16$, $p = 0.05$), ESD($r = 0.3$, $p = 0.001$), IVST ($r = 0.25$, $p = 0.003$), PWT ($r = 0.31$, $p = 0.001$), LVMI ($r = 0.12$, $p = 0.019$), EDV ($r = 0.19$, $p = 0.024$), and ESV ($r = 0.32$, $p = 0.001$), and an inverse correlation with EF ($r = -0.39$, $p = 0.001$).

Conclusion: DM is a major clinical problem for physicians. The presence of HF in patients with type 2 DM is associated with poor prognosis compared with patients without DM. The presence of IHD and AH is a major cause of HF in DM patients. In the early stages of HF, a thorough analysis of the left ventricular diastolic function on echocardiography is important for diagnosis. At the same time, determining the amount of NT-proBNP in the blood is also important.

Keywords: Arterial hypertension, type 2 diabetes mellitus, NT-proBNP, cardiac remodeling, left ventricular diastolic function, left ventricular systolic function.

Saidakbarova F.T.

Tayanch doktorant, Respublika ixtisoslashtirilgan
kardiologiya ilmiy amaliy tibbiyot markazi,
Toshkent, O'zbekiston

Srojdinova N.Z.

Tibbiyot fanlari doktori,
Respublika ixtisoslashtirilgan kardiologiya
ilmiy amaliy tibbiyot markazi,
Toshkent, O'zbekiston

QANDLI DIABETLI BEMORLARDA YURAK REMODELINGI RIVOJLANISHIDA NT-PROBNP NING AHAMIYATI

ANNOTATSIYA

Maqsad: Qandli diabet (QD) va arterial gipertenziyasi (AG) bor bemorlarda NT-proBNP ko'rsatgichining yurak remodelingidagi ahamiyatini o'rganish.

Tadqiqod materiali va usullari: Tadqiqotga 134 nafar AG va QD li 35 yoshdan 80 yoshgacha bo'lgan bemorlar olindi. Bemorlarning o'rtacha yoshi 62.42 ± 8.1 yosh, ularning 38 % erkak va 62% ayol kishilar tashkil qildi. Bemorlar NT-proBNP ning ko'rsatgichiga ko'ra 2 guruhga bo'lindi: 1-guruh NT-proBNP ko'rsatgichi 125 pg/ml dan baland bo'lgan bemorlar ($n=64$ ta) va 2-guruh NT-proBNP ko'rsatgichi 125 pg/ml dan past bo'lgan bemorlar ($n=73$ ta) kiritildi.

Tadqiqod natijalari: Ikkala guruh ambulator SQB va DQB ko'rsatgichlari taqqoslanganda o'zaro farq topilmadi. Ikkala guruhda NT-proBNP ko'rsatgichi: $297.5[160.0-562.5]$ pg/ml vs $42.0[21.6-61.0]$ pg/ml tashkil qildi.

OSO* - 3.8 ± 0.8 sm vs 3.4 ± 0.3 sm, $r=0.001$; ODO* - 5.38 ± 0.6 sm vs 5.21 ± 0.3 sm, $r=0.046$. ODX - 142.7 ± 36.7 ml vs 130.9 ± 19.4 ml, $r=0.024$; OSX - 69.3 ± 35.8 ml vs 51.25 ± 12.89 ml, $r=0.001$; qorinchalararo to'siq va chap qorincha orqa devori qalinligi 1-guruhda statistik ishonchli darajada qalin ekanligi aniqlandi - QATQ - 1.23 ± 0.8 mm vs 1.18 ± 0.1 mm, $r=0.004$; CHQODQ - 1.22 ± 0.09 mm vs 1.15 ± 0.12 mm, $r=0.001$; chap qorincha otish fraksiyasi ikkala guruhda saqlangan bo'lsa ham, guruhlar o'zaro ishonchli farq qildi: $53.6 \pm 11.8\%$ vs $61.17 \pm 4.5\%$, $r=0.001$. 1- guruh bemorlarda CHQMM - 262.2 ± 44.07 g/m² vs 261.6 ± 65.1 g/m², $p=0.6$ va CHQMMi - 172.9 ± 44.6 g/m² vs 161.4 ± 26.3 g/m², $p=0.026$ 2-guruh bemorlarga qaraganda statistik ishonchli yuqori bo'ldi.

Shu bilan birga NT-proBNP ko'rsatgichi QD davomiyligi ($r=0.33$, $p=0.001$), ODO* ($r=0.16$, $p=0.05$), OSO* ($r=0.3$, $p=0.001$), QATQ ($r=0.25$, $p=0.003$), CHQODQ ($r=0.31$, $p=0.001$), CHQMMi ($r=0.12$, $p=0.019$), ODH ($r=0.19$, $p=0.024$), OSX ($r=0.32$, $p=0.001$) o'rtasida to'g'ri korrelyatsion bog'lanish OF ($r= -0.39$, $p=0.001$) bilan teskari korrelyatsion bog'lanish borligi aniqlandi.

Xulosa: QD kasalligi davolovchi shifokor uchun asosiy klinik muammo hisoblanadi. QD 2-turli bemorlarda YuE mavjudligi QD bo'lmagan bemorlarga nisbatan yomon prognoz hisoblanadi. YUIK va AG mavjudligi QD bemorlarda SYUE rivojlanishining asosiy sabablaridan sanaladi. SYUE ning erta bosqichlarida tashhislashda ExoKG tekshiruvda chap qorinchaning diastolik faoliyatini chuqur tahlil qilish muhim hisoblanadi. Shu bilan birga qondagi NT-proBNP ning miqdorini aniqlash ham muhim hisoblanadi.

Kalit so'zlar: arterial gipertenziya, qandli diabet 2-tur, NT-proBNP, yurak remodelingi, chap qorincha diastolik faoliyati, chap qorincha sistolik faoliyati.

Kirish. Yurak qon-tomir patologiyasi rivojlanishi va avj olishida qandli diabet 2-turi (QD 2) kuchli xavf omillaridan sanaladi. Ma'lumki, QD erkaklarning 2 va ayollarda 4 marta yurak qon-tomir o'limi xavfni oshiradi va bu bemorlar yuqori va juda yuqori xavf guruhidagi bemorlar kategoriyasiga kiradi [1]. QD 2-turi iqtisodiy rivojlangan barcha mamlakatlarning yurak qon-tomir kasalliklaridan kelib chiqadigan erta nogironlik va o'lim ko'rsatkichlarining o'sib borishida asosiy tibbiy va ijtimoiy muammodir. Xalqaro diabet federatsiyasi taqdim

qilgan statistik ma'lumotlarga ko'ra, "diabet bilan kasallanish butun dunyo bo'ylab 537 million kishini tashkil qiladi va bu meta-tahlillar daromadi past va o'rtacha sanalgan davlatlarda yanada yuqori ...". Jahon sog'liqni saqlash tashkiloti (JSST) ma'lumotlariga ko'ra, O'zbekiston ham QD va yurak qon-tomir tizimi kasalliklari rivojlanishi xavfi yuqori mamlakatlar sirasiga kiradi. Dunyo miqyosida diabetdan o'lim erkaklarga qaraganda ayollar orasida ko'p uchraydi (2.1 qarshi 1.8 mln) va bu asosan ayollarda yurak qon-tomir xavfining

yuqoriligi bilan bog'liq bo'lishi mumkin [2]. Diabet bilan og'rikan bemorlarning o'lim havfini va sababini baholashda o'tkazilgan qator epidemiologik tadqiqotlar mualliflarining takidlashicha, bu kasallikda o'lim holati sodir bo'lishiga yurak qon-tomir kasalliklari olib keladi. JSSTning ta'kidlashicha, yaqin 20-yil ichida sayyoramiz miqyosida QD bilan og'rikanlar sonining 122 % ga oshishi kutilmoqda. Bu 1-navbatta yer yuzi aholisining tez sur'atlarda qarib borayotganligi va turmush tarzining urbanizatsiyalashuvi yanada chuqurlashayotganligi bilan bog'liq [3]. Mamlakatimizda QD bilan kasallanish 20 yoshdan 79 yoshgacha aholi orasida 7.5-7.6% ni tashkil qiladi, 60 yoshdan aholi orasida esa 0.74% ni tashkil etadi[4]. Framingham tadqiqotiga ko'ra QD dan o'limning asosiy sababi bo'lib yurak qon-tomir kasalliklari va surunkali yurak yetishmovchiligi (SYUYE) hisoblanadi [5]. YuYE simptomlarining rivojlanishidan avvalroq simptomsiz subklinik chap qorincha disfunktsiyasi rivojlanadi. QD da erta simptomsiz SYUYE ga quyidagi belgilar xarakterlidir: 1) yurakning struktur o'zgarishi belgilari (miokard gipertrofiyasi, yurak bo'shliqlari dilatatsiyasi), 2)CHQ miokardi funksiyasining buzilishi (sistolik va diastolik), 3) biomarkyorlarning qondagi yuqori konsentratsiyasi (natriyuretik peptid (NUP) yurak troponinlari sTn) [6]. Boshlang'ich simptomsiz bosqichda standart ExoKG CHQ miokardining struktur va funksional o'zgarishlari haqida aniq va ishonchli ma'lumot beradi[7,8]. Simptomsiz YuYE ning skrining metodi maqsadida qondagi NUPni aniqlash metodi muhimdir[6,9].

Maqsad: Qandli diabet (QD) va arterial gipertenziyasi (AG) bor bemorlar NT-proBNP ko'rsatgichining yurak remodelingidagi ahamiyatini o'rganish.

Tadqiqod materiali va usullari: Tadqiqot Respublika ixtisoslashtirilgan kardiologiya ilmiy-amaliy tibbiyot markazi DM (RIKIATM DM) "Kardiometabolik buzilishlar va endokrinologiya" bo'limida o'tkazildi. Tadqiqotga 134 nafar AG va QD li 35 yoshdan 80 yoshgacha bo'lgan statsionar sharoitda davolangan bemorlar olindi. Bemorlarning o'rtacha yoshi 62.42 ± 8.1 yosh, ularning 38 % erkak va 62% ayol kishilar tashkil qildi. Barcha bemorlar umumqabul qilingan antigipertenziv va qand pasaytiruvchi preparatlarni qabul qildi.

Bemorlar anamnezida o'tkazilgan yurak-qon tomir kasalliklari va surunkali kasalliklar qayd etilganligiga qarab yondosh kasalliklar tahlili o'tkazildi. Yondosh kasalliklar mavjudligi statsionar sharoitda tekshirish xulosalari asosida aniqlandi. Tekshiruvga saqlangan otish fraksiyalı bemorlar (CHQOF ≥ 50 % dan baland) olindi.

Bemorlar NT-proBNP ning ko'rsatgichiga ko'ra 2 guruxga bo'lindi: 1-guruh NT- proBNP ko'rsatgichi 125 pg/ml dan baland bo'lgan bemorlar (n=64 ta) va 2-gurux NT- proBNP ko'rsatgichi 125 pg/ml dan past bo'lgan bemorlar (n=73 ta) kiritildi.

Miokardning struktur-funksional xolati va remodelanish jarayoni doppler-ExoKG usuli bilan baholandi. Tekshiruvlar ultratovush "ACUSON X 700 PV 2.0" apparatida (SIEMENS, Germaniya) amalga oshirildi. Tekshiruv Amerika Exokardiografiya Assotsiatsiyasi tavsiyalariga asosan M va V rejimda transtorakal usul bilan amalga oshirildi. Tavsiyalarga ko'ra, CHQ OF disk metodi (Simpson usuli) asosida biplan (apikal 4 kamerali va apikal 2 kamerali) tasvirlarda o'lchanadi. Chap qorinchaning yakuniy diastolik (CHQ YADH) va sistolik hajmi (CHQ YAS'H) ma'lumotlari 4 va 2 kamerali tasvirlardan olindi. ExoKG tekshiruvda yurakning quyidagi struktur ko'rsatgichlari baholandi: Oxirgi diastolik o'lcham (ODO'), oxirgi sistolik o'lcham (OSO'), qorinchalararo to'siq qalinligi (QATQ), chap qorincha orqa devori qalinligi (CHQODQ), chap bo'lmacha indeksi (CHBi), aorta, chap qorincha miokarda massasi (CHQMM), CHQMM indeksi (CHQMMi) ko'rsatgichi, devorlarning nisbiy qalinligi (DNQ). CHQ sistolik faoliyati Oxirgi diastolik xajm (ODX), oxirgi sistolik xajm (OSX), CHQ otish fraksiyasi (CHQOF) Simpson usulida aniqlandi, zarb hajmi (ZH) ODH va OS'H orasidagi farq. Miokardning diastolik faoliyati quyidagi ko'rsatgichlar bo'yicha baholandi: Chap qorincha erta to'lish maksimal tezligi (Ye cho'qqi), Chap bo'lmacha kechgi to'lish maksimal tezligi (A cho'qqi), Ye/A nisbati. NT-pro BNP elektrokimyoviy lyuminissent immun tahlil ECLIA (Roche) yordamida amalga oshirildi.

Natijalar statistik tahlili 2 bosqichda amalga oshirildi: statistik tahlilga tayyorlov va mahsus statistik tahlil. Statistik tahlil IBM- SPSS 27.0 dasturiy paketi yordamida bajarildi. O'rtacha arifmetik (M); o'rtacha kvadratik standart og'ish (SD); Mediana (Me), pastki(Q1) va yuqori (Q3) kvartil hisoblab chiqildi. Ikki guruxning arifmetik vositalarini solishtirish uchun (nazorat va eksperimental) t- test Styudent mezonidan foydalanildi. Sifat belgilari o'rtasidagi xaqqoniylikni taxlil qilish uchun X2 kriteriysidan foydalanildi.

Farqlar R≤0.05 ga teng bo'lganda xaqqoniy deb hisoblanadi. O'rganilayotgan ko'rsatkichlar o'rtasidagi bog'liqlik korrelyatsiya tahlili natijalari bilan Pirson (r) yoki Spirmen (R) korrelyatsiya koeffitsiyentini xisoblash va keyinchalik uning ahamiyatini t mezonı bo'yicha aniqlash bilan baholandi.

Jadval 1.

Guruhlardagi bemorlarning qiyosiy tavsifi

	NT- proBNP >125 ng/ml (n=64)	NT- proBNP <125 ng/ml (n=73)	P (value)
O'rtacha yoshi	64.79±8.79	61.48±8.68	0.38
Erkaklar	24 (38%)	37 (51%)	χ^2 -15.52 P-0.001
Ayollar	40 (62%)	36 (49%)	χ^2 -0.34 P-0.5
Og'irligi, kg	80.89±15.2	89.04±13.24	0.03
Bo'yi, sm	162.47±8.8	164.6±8.9	0.18
Tana vazni indeksi kg/m2	30.68±5.72	32.9±4.89	0.024
YUIK	64 (100%)	73 (100%)	0
IKKS	23 (36%)	7 (10%)	χ^2 -19.085 P-0.001
Nazoratdagi AG	38(59%)	34 (47%)	χ^2 -2.8 P-0.09
AG 1-daraja	13 (20%)	25 (34%)	χ^2 -4.9 P-0.026
AG 2-daraja	12 (19%)	11 (15%)	χ^2 -0.56 P-0.45
AG 3-daraja	1 (2%)	3 (4%)	χ^2 -0.68 P-0.4
Qandli diabet davomiyligi	8.76±6.5	5.04±4.7	0.022
SYUYE I bosqich	11 (17%)	22 (30%)	χ^2 -4.7 P-0.031

SYUYE II bosqich	53 (83%)	51 (70%)	χ^2 -4.7 P-0.031
Anamnezida BMQAO'B	5 (8%)	1 (1.3%)	χ^2 -5.06 P-0.025

Guruhlararo bemorlar yoshi va ayol jinsi bo'yicha o'zaro farq topilmadi (jadval 1). Erkak jinsiga mansub bemorlar soni 2-guruhda ko'proq ekanligi aniqlandi; $r=0.001$. Bemorlarning tana vazni va tana vazni indeksi ham 2-guruhda yuqori ekanligi aniqlandi; $r=0.024$. YUIK ikkala guruhda ham barcha bemorlarda tashhislangan. Anamnezida IKKS 1-guruhda statistik ishonchli darajada ko'proq bemorlarda kuzatildi. Gipertoniya kasalligi ikkala guruhda ham tashhislangan va uning darajalari bo'yicha ikkala guruhda deyarli statistik farqli ko'rsatkichlar olinmadi. SYUYE ikkala guruh bemorlarida ham kuzatilgan. SYUYE I bosqichi 2-guruh bemorlarida ko'proq uchradi $r=0.031$. SYUYE II bosqichi 1-guruhda statistik ishonchli darajada

ko'proq uchradi. Qandli diabet kasalligining davomiyligi yillar bo'yicha guruhlararo tahlil qilinganda 1-guruhda statistik ishonchli darajada davomliroq ekanligi aniqlandi; $r=0.022$. Anamnezida BMQAO'B ham 1-guruhda statistik ishonchli darajada ko'proq bemorlarda aniqlandi; $r=0.025$.

Tadqiqod natijalari: Ikkala guruh ambulator SQB va DQB ko'rsatkichlari bilan o'zaro taqqoslandi. SQB va DQB ko'rsatkichlari taqqoslanganda o'zaro farq topilmadi (jadval 2). Ikkala guruhda NT-proBNP ko'rsatkichi : 297.5[160.0-562.5] pg/ml vs 42.0[21.6-61.0] pg/ml.

Jadval 2.

Guruhlardagi QB ko'rsatkichlari			
	NT-proBNP>125 pg/ml (n=64)	NT- proBNP <125 pg/ml (n=73)	P (value)
SQB, mm.sm.ust	132.66±17.7	134.5±18.04	0.5
DQB, mm.sm.ust	84.04±9.7	84.7±9.9	0.7
YUQS	73.85±14.4	73.67±8.8	0.9

Markaziy gemodinamika ko'rsatkichlari taqqoslanganda 1-guruxda bu o'lehamlar katta ekanligi kuzatildi (jadval 3):

Jadval 3.

Guruhlardagi markaziy gemodinamika ko'rsatkichlari			
	NT-proBNP>125 pg/ml (n=64)	NT- proBNP <125 pg/ml (n=73)	P (value)
ODO', sm	5.38±0.6	5.21±0.3	p=0.046
OSO', sm	3.8±0.8	3.4±0.3	p=0.001
QATQ, sm	1.23±0.8	1.18±0.1	p=0.004
CHQODQ, sm	1.22±0.09	1.15±0.12	p=0.001
ODH, ml	142.7±36.7	130.9±19.4	p=0.024
OCH, ml	69.3±35.8	51.25 ±12.89	p=0.001
CHQMM, g	262.2±44.07	261.6±65.1	p=0.6
CHQMMi, kg/m2	172.9±44.6	161.4±26.3	P=0.026
Zarb xajmi	76.95±13.8	80.32±9.1	p=0.1
FV	55.3±10.3	61.17±4.5	p=0.001
Ye cho'qqi m/s	0.65±0.14	0.6±0.13	p=0.054
A cho'qqi m/s	0.81±0.07	0.79±0.06	p=0.058
Ye/A nisbati	1.01±1.3	0.8±0.3	p=0.2
e' cho'qqi m/s	0.08±0.02	0.1±0.12	p=0.7
E/e'- nisbati	0.75±1.3	0.8±1.6	p=0.043

OSO' - 3.8±0.8sm vs 3.4±0.3 sm, $r=0.001$; ODO' - 5.38±0.6 sm vs 5.21±0.3 sm, $r=0.046$. ODH - 142.7±36.7 ml vs 130.9±19.4 ml, $r=0.024$; OS'H - 69.3±35.8 ml vs 51.25 ±12.89 ml, $r=0.001$; qorinchalararo to'siq va chap qorincha orqa devori qalinligi 1-guruhda statistik ishonchli darajada qalin ekanligi aniqlandi - QATQ-1.23±0.8 mm vs 1.18±0.1 mm, $r=0.004$; CHQODQ - 1.22±0.09 mm vs 1.15±0.12 mm, $r=0.001$; chap qorincha otish fraksiyasi ikkala guruhda saqlangan bo'lsa ham, guruhlar o'zaro ishonchli farq qildi: 53.6±11.8% vs 61.17±4.5%, $r=0.001$. 1- guruh bemorlarda CHQMM -262.2±44.07 g/m2 vs 261.6±65.1 g/m2, $p=0.6$ va CHQMMi -172.9±44.6 g/m2 vs 161.4±26.3g/m2, $p=0.026$ 2-guruh bemorlarga qaraganda statistik ishonchli yuqori bo'ldi.

1-guruh bemorlarda cho'qqi tezligi ko'rsatkichlari past ekanligi aniqlandi: Ye cho'qqi - 0.65±0.14m/s vs 0.6±0.13m/s, $r=0.054$; A

cho'qqi - 0.81±0.07m/s vs 0.79±0.06m/s, $r=0.058$; Ye/A - 1.01±1.3 vs 0.8±0.3, $r=0.2$. e' cho'qqi 1- guruhda sezilarli past ekanligi aniqlandi: e' 0.08±0.0 m/s vs 0.1±0.12m/s, $r=0.7$; E/e'- nisbati 1-guruhda statistik ishonchli darajada past ekanligi aniqlandi -0.75±1.3 m/s vs 0.8±1.6 m/s, $r=0.043$.

Shu bilan birga NT- proBNP ko'rsatkichi QD davomiyligi ($r=0.33$, $p=0.001$), ODO' ($r=0.16$, $p=0.05$), OSO' ($r=0.3$, $p=0.001$), qorinchalararo to'siq qalinligi ($r=0.25$, $p=0.003$), chap qorincha orqa devor qalinligi ($r=0.31$, $p=0.001$), CHQMMi ($r=0.12$, $p=0.019$), ODH ($r=0.19$, $p=0.024$), OS'H ($r=0.32$, $p=0.001$) o'rtasida to'g'ri korrelyatsion bog'lanish OF ($r= -0.39$, $p=0.001$) bilan teskari korrelyatsion bog'lanish borligi aniqlandi (jadval 4).

Jadval 4.

NT- proBNP bilan korrelyatsion bog'liqliklar		
Ko'rsatkichlar	Rx	P (value)
QD davomiyligi	0.33	0.001
ODO'	0.16	0.05
OSO'	0.3	0.001
QATQ	0.25	0.003

CHQODQ	0.31	0.001
ODH	0.19	0.024
OS'H	0.32	0.001
CHQMMi	0.12	0.019
OF	-0.39	0.001

Мухомова: QD 2-tur bemorlarda YuYE rivojlanishining erta bosqichlarda ya'ni a'zolari qaytar o'zgarishlarning rivojlanishi mumkin bo'lgan davrida erta tashhislash yurak qon-tomir asoratlari rivojlanishi, nogironlik rivojlanishi va o'lim havfini kamaytirishi mumkin. Chap qorincha diastolik disfunktsiyasi bu yurakning erta shikastlanishi belgisi hisoblanib, kasallikning klinik belgilari rivojlanishidan ancha oldin tashhislanishi mumkin. Chap qorincha diastolik disfunktsiyasi yurakning yagona funksional buzilishi sanalib, u faqatgina exokardiografiya usuli (ExoKG) orqali aniqlanadi [10]. Yevropa kardiologlar jamiyati tavsiyalariga ko'ra SYUYE tashhislashda qondagi miya natriyuretik peptid gormoni (BNP) va uning NT-pro BNP qismini aniqlash muhim sanaladi. Ko'plab tadqiqotlar natijasiga ko'ra, NT-pro BNP qondagi miqdori va chap qorinchaning otish fraksiyasi, diastolik funktsiyasi ko'rsatkichlari o'rtasidagi o'zaro bog'liqlik borligini ko'rsatadi [11]. Bizning tadqiqotimizda chap qorincha OF saqlangan bemorlar olingan bo'lsa ham NT-pro BNP qondagi miqdori ishonchli darajada baland ekanligi va uning ExoKG tekshiruvdagi yurak o'lchamlari bilan korrelyatsion bog'lanishi borligi aniqlandi. Ushbu gormon plazmadagi konsentratsiyasi miokardga nagruzka oshganda ko'tariladi. BNP va NT-pro BNPning yuqori ko'rsatkichi SYUYE borligini ko'rsatadi va yomon prognoz hisoblanadi. Casson E va boshqalarning tadqiqodiga ko'ra QD va YUIK, AG bor bemorlarda bu tashhislar yo'q bemorlarga nisbatan NT-proBNP ishonchli darajada yuqori konsentratsiyada ekanligi ma'lum bo'ldi [6]. Bizning tadqiqotimizda ham NT-proBNP normadan baland

ko'rsatkichda bo'lgan bemorlar guruhida YUIK, AG, SYUYE bosqichlari va BMQAO'B kabi klinik holatlar ko'proq foizda uchraganini ko'rishimiz mumkin.

QD 2-turi SYUYE rivojlanishi va jadallashuviga sezilarli ta'sir qilishini ko'plab tadqiqotlar natijalaridan ko'rishimiz mumkin [1,2]. Tadqiqotimizga olingan barcha QDli bemorlarimizda SYUYEning 3 ta bosqichi uchragani ko'rdi. Shuning uchun ushbu kategoriya bemorlarimizda o'z vaqtida CHQ disfunktsiyasini tashhislash muhim hisoblanadi. Ushbu holatda asosiy diagnostik o'rinni ExoKG va plazmadagi BNP yoki NT-proBNP tahlillari o'z qo'liga oladi. Ushbu tadqiqotda QD 2 turi va AG bo'lgan bemorlarda NT-proBNP va yurakning struktur o'zgarishlari bilan bog'liqligi o'rganildi. Tadqiqotga olgan bemorlarimiz saqlangan OF ga ega bo'lgan bemorlar bo'lishiga qaramay NT-proBNP ko'rsatkichi baland ekanligini ko'rishimiz mumkin. Bunda qanchalik yurak remodelingi kuchli ifodalangan bo'lsa bemorda shunchalik NT-proBNP ko'rsatkichi ham baland chiqishi aniqlandi. Shuningdek NT-proBNP ko'rsatkichining balandligi va QD da CHQ o'lchamlari bilan to'g'ri korrelyatsion bog'lanish borligi ham ko'rdi.

Xulosa: QD kasalligi davlovchi shifokor uchun asosiy klinik muammo hisoblanadi. YUIK va AG mavjudligi QD bemorlarda SYUYE rivojlanishining asosiy sabablaridan sanaladi. SYUYEning erta bosqichlarida tashhislashda ExoKG tekshiruvda chap qorinchaning diastolik faoliyatini chuqur tahlil qilish va qondagi NT-proBNP ning miqdorini aniqlash muhim hisoblanadi.

Список литературы/References/Иқтибослар:

- Дедов ИИ. Сахарный диабет: развитие технологий в диагностике, лечении и профилактике (плeнарная лекция). Сахарный диабет. 2010;3: 6-13.
- Толмачева А.А. и др. Молекулярно-генетические маркеры инфаркта миокарда в сочетании с сахарным диабетом 2 типа // Российский кардиологический журнал.-2022.-Т.27.-№.S2.-С.19-24.
- Tamura H, Kondo Y, Ito K, Hasebe M, Satoh S, Terauchi Y. Comparison of the effects of empagliflozin and glimepiride on endothelial function in patients with type 2 diabetes: A randomized controlled study. // PLoS One. 2022 Feb 16;17(2):e026 2831.
- Алиева А.В., Исмаилов С.И., Рахимова Г.И. Ўзбекистонда қандли диабет эпидемиологияси ва предиабет: скрининг натижалари. Ж.Теор. ва Клин.Мед.-2017.-№2.-58-61 б.
- Kannel WB, Hjortland M, Castelli WP. Role of diabetes in congestive heart failure: The Framingham study. Am J Cardiol. 1974 Jul;34(1):29-34.
- Pop-Busui R, Januzzi JL, Bruemmer D, et al. Heart Failure: An Underappreciated Complication of Diabetes. A Consensus Report of the American Diabetes Association. Diabetes Care 2022;45:1670-90. doi:10.2337/dci22-0014.
- Lee SH, Park J-H with Diabetes Mellitus. The Role of Echocardiography in Evaluating Cardiovascular Diseases in Patients. Diabetes Metab J. 2023;47:470-83. doi:10.4093/ dmj.2023.0036.
- Utina TG, Akasheva DU, Korsunsky DV, Drapkina OM. Significance of standard and speckle-tracking echocardiography for early diagnosis of asymptomatic left ventricular dysfunction in type 2 diabetes. Cardiovascular Therapy and Prevention. 2023;22(1):3478. (In Russ.) Утина Т. Г., Акашева Д. У., Корсунский Д.В., Драпкина О.М. Значение стандартной и спектрекинг-эхокардиографии для ранней диагностики бессимптомной дисфункции миокарда левого желудочка при сахарном диабете 2 типа. Кардиоваскулярная терапия и профилактика. 2023;22(1):3478. doi:10.15829/1728-8800-2023-3478.
- 2020 Clinical practice guidelines for Chronic heart failure. Russian Journal of Cardiology. 2020;25(11):4083. (In Russ.) Хроническая сердечная недостаточность. Клинические рекомендации 2020. Российский кардиологический журнал. 2020;25(11):4083. doi:10.15829/1560-4071-2020-4083.
- Мареев ВЮ, Агеев ФТ, Арутюнов ГП, Коротеев АВ, Ревитшвили АШ. Национальные рекомендации ВНОК и ОССН по диагностике и лечению ХСН (третий пересмотр). Журнал сердечная недостаточность. 2010;11(1):3-62.
- ESC Heart Failure recommendation 2024 update in heart failure Alberto Beghini1, Antonio Maria Sammartino1, Zoltán Papp2, Stephan von Haehling3,4, Jan Biegus5,Piotr Ponikowski5, Marianna Adamo1, Luigi Falco6, Carlo Mario Lombardi1, Matteo Pagnesi1,Gianluigi Savarese7,8, Marco Metraland Daniela Tomasoni1,7* Published online 28 May 2024 in Wiley Online Library (wileyonlinelibrary.com) DOI: 10.1002/ehf2.14857